

LUG‘ATLAR YARATISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH VA UNING MUAMMOLARI

Namangan davlat universiteti talabasi
Sog‘inboyeva Shahzoda

Annotatsiya: Ushbu maqolada lug‘atlar yaratishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Ma’lumotlar oqimini boshqarish, leksik birliklarni to‘plash va ularni qayta ishlash jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalarining tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, tilshunoslikda kompyuter texnologiyalarining asosiy yo‘nalishlari — mashinaviy tarjima, lug‘atshunoslik ishlarini avtomatlashtirish va bibliografik ma’lumotlarni qayta ishlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kompyuter texnologiyasi, lug‘atshunoslik, mashinaviy tarjima, informatsion-qidiruv tili, tezaurus, lingvistik informatika, EHM, avtomatlashtirish, leksikografiya.

USE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN CREATING DICTIONARIES AND ITS PROBLEMS

*Student of Namangan State University
Soginboyeva Shahzoda*

Abstract: This article covers the theoretical and practical aspects of using computer technologies in creating dictionaries. The role of modern computer technologies in the process of managing data flows, collecting lexical units and processing them is analyzed. Also, the main areas of computer technologies in linguistics are considered - machine translation, automation of lexicographic work and processing of bibliographic data.

Keywords: computer technology, lexicography, machine translation, information-retrieval language, thesaurus, linguistic informatics, computer, automation, lexicography.



Lugʻatlar yaratishda kompyuterdan foydalanish muammolari. Maʼlumki, tevarak-atrofdagi maʼlumot, axborot koʻp. Inson uchun bu maʼlumotlarning barchasini toʻplashi va oʻz xotirasida saqlashi juda mushkul ish. Shunga koʻra inson oʻziga kerakli boʻlgan axborotlarni yigʻish va ularga ishlov berishning yoʻllarini qidirishga intiladi. Kompyuter qurilmalari bu sohada insonga katta yordam bermoqda. Hozirgi vaqtda kompyuter yordamida tilshunos olimlar soʻzlarni bir joyga toʻplash, ularga qayta ishlov berish, shu asosda turli xil lugʻatlar, rubrikatorlar, glossariylar, soʻzlashgichlar yaratish bilan shugʻullanmoqdalar. Umuman, atamalarni toʻplash va ularga qayta ishlov berish jarayonida kelib chiqqan katta amaliy ehtiyoj tilshunoslikda kompyuter texnologiyasidan kengroq foydalanish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Hozirgi kunga kelib fan-texnika inqilobi natijasida tinmay yogʻilib turgan materiallar, axborotlar oqimini faqat kompyuter texnologiyasi yordamidagina boshqarish mumkin boʻlib qoldi.¹

Tilshunoslikda kompyuter texnologiyasidan foydalanish, asosan, quyidagi yoʻnalishlar uchun xizmat qilmoqda: a) mashinaviy tarjima muammolari bilan shugʻullanish; b) lugʻatshunoslik ishlarini avtomatlashtirish va ixchamlashtirish; v) bibliografik maʼlumotlarni avtomatik yoʻl bilan qidirish va ularga qayta ishlov berish va hokazo. Bu ishlar natijasida tilshunoslikda tatbiqiy (amaliy) lingvistik deb nomlangan yangi yoʻnalish vujudga keldi. Bu yoʻnalishda kompyuter lingvistikasiga ham katta oʻrin ajratilgan.²

Yirik tilshunos olim I.V.Arnoldning fikricha, leksikografik maʼlumotlarni avtomatlashtirish, ularni toʻplash va qayta ishlash natijasida bir tilli va koʻp tilli lugʻatlar, glossariylar hamda konkordans (yagona muallif tomonidan yaratilgan lugʻat)larning butun bir avlodini ishlab chiqildi va nashr qilindi. Hozirgi vaqtda K.Bernxart (AQSH), Dj.Lich (Angliya), Y.N.Marchuk, L.N.Belyayeva, G.G.Smirniskiy (Rossiya) kabi olimlar tilshunoslikning turli xil nazariy hamda amaliy

¹ Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2011.

² Poʻlatov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2009.



masalalarini hal qilishda, ayniqsa, lugʻatshunoslikda kompyuter texnologiyasidan samarali foydalanmoqdalar.³

Kompyuter texnologiyasidan foydalanish uchun avvalo informatsion-qidiruv tili tushunchasini yaxshi tushunib olish talab qilinadi. EHMda semantik maʼlumotlarni yozib olishga va undan informatsion-qidiruv tizimida foydalanishga moʻljallangan sunʼiy mashina tili informatsion-qidiruv tili (IQT) deb yuritiladi. Tabiiy til bilan IQTni solishtirish maqsadida yaratiladigan lugʻatlar informatsion-qidiruv tezaurusi deyiladi. ⁴Bunday tezauruslar maʼlum bir tilning, jumladan, oʻzbek tilining turli xil ideografik lugʻatlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlar ana shunday ideografik lugʻatlar tuzish jarayonida quyidagi operatsiyalarni kompyuter yordamida bajarmoqdalar: a) tuzilayotgan tezaurusning mavzu koʻlamini belgilab olish; b) lugʻat uchun zarur boʻlgan kalit soʻzlarni aniqlash va ularga ishlov berish; v) deskriptorlar orasidagi shartli ekvivalentlik hollarini belgilash; g) deskriptorlar oʻrtasidagi paradigmatic munosabatlari aniqlash va ularni ochib berish; d) tezaurus lugʻatni toʻla shakllantirish.⁵

Hozirgi vaqtga kelib tilshunoslikda kompyuter texnologiyasidan keng foydalanish natijasida lingvistik informatika sohasi vujudga keldi va bu soha bugungi kunda jadal surʼatlar bilan rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bu sohada nemis, ingliz, fransuz, ispan, rus tillarida juda boy tajribalar toʻplangan. Masalan, sobiq Ittifoq davrida Fan va texnika informatsiyalari butunittifoq instituti (VINITI), Gumanitar fanlar boʻyicha ilmiy informatsiyalar instituti (INION), Texnik informatsiyalarni yigʻish, tasnif qilish va kodlashtirish boʻyicha butunittifoq ilmiy-tadqiqot instituti (VNIKI), Butunittifoq ilmiy-texnik informatsiyalar markazi (VNTIS) kabi muassasalarda ilm-fanning barcha yoʻnalishlari boʻyicha olingan maʼlumotlar jamlanardi va ularga zarur avtomatik ishlovlar berilardi.

Fan oldiga yangi vazifalarning qoʻyilishi bilan tilshunoslik fani EHMlar yordamida tarjima jarayonini takomillashtirish bilan XX asrning 30-yillaridan boshlab shugʻullana boshladi. Keyingi yillarda avtomatik EHM larning yaratilishi munosabati

³ Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yoʻnalishlari. – Andijon, 2006

⁴ Poʻlatov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2009.

⁵ Mirtojiev. M. —Oʻzbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi||, Toshkent, 2000.





bilan ilmiy va badiiy tarjima jarayonini mexanizatsiyalash imkoniyatlari yanada kengaydi. Mashina yordamida biror matnni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish uchun maxsus tanlangan soʻzlar bilan birga matnni mexanik ravishda tarjima qilish imkoniyatini beruvchi qoidalar tizimini yaratish. Bu qoidalarni va soʻzlarni “mashina tili” da yozish, ya’ni oʻsha qoidalarni reallashtiruvchi dastur ishlab chiqish kerak.⁶

Tarjima qilish qoidalari faqat ikki til uchun zarur boʻlib, bir umumiy yoʻnalishdagi rasmiy va ilmiy matnlarni, baʼzan badiiy matnlarni ham tarjima jarayonini EHMda amalga oshirish uchun lingvistik taʼlimot ishlarini amalga oshirish zarur.⁷

Xulosa qilib aytganda, kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida tilshunoslik fanida, ayniqsa, lugʻatshunoslik sohasida yangi imkoniyatlar yuzaga keldi. Lugʻatlar yaratish, soʻzlarni toʻplash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirish ilmiy ishlarning samaradorligini oshirdi. Mashinaviy tarjima, informatsion-qidiruv tizimlari va tezauruslar ishlab chiqish yoʻnalishlari lingvistik informatikaning asosini tashkil etdi. Shu bilan birga, kompyuter texnologiyalaridan toʻliq va samarali foydalanish uchun dasturlash, algoritmlashtirish va sunʼiy intellekt asoslarini chuqur oʻrganish zarurligi taʼkidlanadi. Natijada, lugʻatshunoslikda kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish tilshunoslik fanining yangi bosqichga koʻtarilishiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2011.
2. Poʻlatov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2009.
3. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yoʻnalishlari. – Andijon, 2006.
4. Mirtojiev. M. —Oʻzbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000.

⁶ Mirtojiev. M. —Oʻzbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000.

⁷ Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yoʻnalishlari. – Andijon, 2006





5. Mengliyev B., Bahridinova B. O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
6. Shukurov O., Boymatova B. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.
7. To'rayeva U., Shodmonova D. O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.
8. Saidova D. va boshq. O'zbek tiliga o'zlashgan forscha o'zlashma so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent, 2015 va boshq.
9. Қодирбекова Д. Ахборот технологиялари терминлари луғатини тузиш тамойиллари// Til va adabiyot ta'limi, 2013.
10. http://www.tdshi.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=205&Itemid=128
11. <http://www.nokia.uz/uz/about/pressrel/1518.htm>
12. <http://ru.wikipedia.org/wiki>

GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING

